



O‘QUVCHILAR ORASIDA HUQUQIY – AXLOQIY TALIM –TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Odiljanov Muxammadsiddiq Oqiljon o‘g‘li

Namangan xarbiy

prokraturasi katta tergovchisi adliya kapitani

Anotatsiya: Mazkur mavzuda o‘quvchilar orasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar, ularning mohiyati, tarkibiy qismlari va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, huquqiy munosabatlarning subyektlari, obyektlari hamda mazmuni haqida tushuncha berilib, o‘quvchilar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar tahlil qilinadi. Ushbu mavzu yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish va ularni jamiyatda to‘g‘ri munosabat o‘rnatishga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: huquqiy munosabatlar, o‘quvchilar, huquq, majburiyat, subyekt, obyekt, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ijtimoiy munosabatlar, ta‘lim jarayoni.

Bugungi kunda huquqiy demokratik davlat haqida ko‘p gapirilyapti. Bunday davlatning fuqarolari esa huquqiy madaniyatli bo‘lmog‘i uchun huquqiy axloqiy tarbiyaga ega bo‘lishlari lozim. Fuqarolarni jumladan yoshlarni huquqiy axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun bu tarbiyaning tub mohiyatini anglab etishimiz darkor. Umumiy ta‘lim jamiyat rivojida tayanch bo‘lsa, huquq axloqiy tarbiya har qanday mamlakatda xalqning erkin yashashi, farovon turmush kechirishi, xoxish – irodasini hech qanday to‘siqlarsiz, amalga oshirishi, ezgu maqsad va niyatlarni amalga oshirishda muhim kafolatdir. Huquqiy axloqiy ta‘lim - tarbiyaning asosiy vazifasi barcha o‘quv muassasalaridagi tinglovchilarga qonunlarimizni, birinchi navbatda,

Konstitutstiyani chuqur o‘rgatish, va hurmat ruhini shakllantirish bilan birga axloqiy fazilatga ega, insonparvar shaxsni, komil insonni tarbiyalab, kamol toptirishdir. Shu nuqtai – nazardan qaraganda hozirgi kunda huquqiy axloqiy ta‘lim - tarbiyaning ahamiyati muhimdir. Huquqiy axloqiy ta‘lim - tarbiya asosida o‘z vatanini sevgan, hayotda ezguliklar sari intila oladigan va o‘z huquqlarini hamda burchlarini bilgan jamiyat a‘zolarigina ijtimoiy hayotning hamma sohalarida ongli ravishda mehnat qiladi va ularning yaratuvchanlik faoliyati ancha yuqori bo‘ladi. Fuqarolarning axloq va huquq qoidalarini yaxshi bilishi va ularga amal qilishidan faqat shaxslar manfaatdor bo‘lmay, balki davlat ham manfaatdordir.

Ayniqsa, o‘quvchilar – kelajak egalari sifatida nafaqat bilimli, balki yuksak axloqiy fazilatlarga ega va huquqiy ongli bo‘lishi zarur. O‘quvchilar orasida shakllanadigan huquqiy va axloqiy munosabatlar ularning shaxs sifatida kamol topishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada o‘quvchilar orasidagi huquqiy va axloqiy munosabatlarning mazmuni, ahamiyati hamda ularning tuzilishi haqida batafsil so‘z yuritiladi. Huquqiy va axloqiy ta‘lim – tarbiya murakkab va ko‘p qirrali hodisadir, uni bir yoqlama ta‘riflash qiyin. Huquqiy va axloqiy ta‘lim - tarbiya – bu shaxsga nisbatan huquqiy va axloqiy ongni, huquqiy va axloqiy

ko'rsatkichlarni, qonunga itaotkorlik xulq – atvor ko'nikmalarini va odatlarini shakllantiruvchi, jamiyat taraqqiyotining ma'naviy vositalarini ta'minlovchi, o'zaro bog'langan, uyushgan bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan holdagi ta'sir ko'rsatilishidir

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichida paydo bo'lgan. Uning paydo bo'lishida kishilarning mehnat faoliyatlari,

iqtisodiy munosabatlari muhim rol o'ynaydi. Mehnat tufayli insonning aqliy, axloqiy va boshqa faoliyati shakllana boshlaydi. Falsafiy – axloqiy fikrlar vujudga

kelgandan boshlab hozirga kunga qadar hayot yuzaga keltirgan turli tuman masalalar, kishilarni qiziqtirib kelayotgan muammolar doimo uning diqqat markazida turadi. Shuning uchun axloqning kelib chiqishida hayot tushunchasi muhim rol o'ynaydi. Hayot eng avvalo inson axloqining manbai va xazinasidir.

Demak, axloqning kelib chiqishi, inson faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, insonning zaruriyatidan kelib chiqqan ijtimoiy tasodifiyatdir. Insoning hattiharakati, yurish-turish normalari, munosabatlarini tartibga solib turuvchi omil Axloqdirxloqiy munosabatlar – bu insonlarning jamiyatda qabul qilingan odob-axloq me'yorlariga asoslangan holda o'zaro aloqalari va xatti-harakatlaridir. O'quvchilar orasida bu munosabatlar hurmat, halollik, do'stlik, mehr-oqibat, hamjihatlik kabi fazilatlar orqali namoyon bo'ladi.

Maktab muhitida o'quvchilar bir-biri bilan doimiy aloqada bo'lishadi. Shu sababli ularning o'zaro munosabatlari sog'lom va ijobiy bo'lishi katta ahamiyatga ega. Masalan, sinfdoshlar o'rtasida hurmat va yordam hissining mavjudligi o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Aksincha, bir-biriga nisbatan befarqlik, kamsitish yoki tajovuzkorlik kabi salbiy holatlar jamoada nizolarni keltirib chiqaradi.

Huquqiy munosabatlar tushunchasi bu - jamiyatda amal qiladigan qonun-qoidalar asosida tartibga solinadigan aloqalardir. O'quvchilar uchun bu, avvalo, maktab ichki tartib-qoidalariga rioya qilish, o'qituvchi va ma'muriyat ko'rsatmalarini bajarish, shuningdek, boshqa o'quvchilarning huquqlarini hurmat qilishni anglatadi.

Huquqiy munosabatlar o'quvchilarda qonunlarga hurmat bilan qarash, o'z huquq va majburiyatlarini anglash, adolatli bo'lish kabi sifatlarni shakllantiradi. Masalan, darsga kechikmaslik, maktab mulkiga zarar yetkazmaslik, boshqalarning shaxsiy hududiga hurmat bilan qarash – bularning barchasi huquqiy madaniyatning namunasidir.

Axloqiy va huquqiy munosabatlarning o'zaro bog'liqligi, Axloqiy va huquqiy munosabatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Axloqiy me'yorlar ko'pincha huquqiy normalarning asosini tashkil etadi. Ya'ni, insonning ichki e'tiqodi va odob-axloqi uning qonunlarga bo'lgan munosabatini belgilaydi.

Masalan, halollik axloqiy fazilat bo'lsa, u o'g'rilik qilmaslik kabi huquqiy me'yorlarda aks etadi. Yoki hurmat tushunchasi boshqa insonning huquqlarini buzmaslik orqali huquqiy shaklga ega bo'ladi. Shu sababli o'quvchilarda axloqiy tarbiya yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, ularning huquqiy ongini rivojlantirish ham qiyinlashadi

Axloq ham, huquq ham, umuman olganda, butun jamiyatning, demakki, aholi aksariyat qismining qarashlari va tushunchalarini aks ettirishi kerak. U larning ijtimoiy

hayotning aynan bir xil sohalarini qamrab olishini hisobga olganda, ular o'rtasida ziddiyatlar bo'lmasligi kerak. Agar bunday ziddiyat paydo bo'lsa, u huquqiy

normalarni o'zgartirish orqali. ya'ni axloq foydasiga hal qilinishi zarur. O'quvchilardagi axloq va huquq o'rtasidagi asosiy farq quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- huquq normalari davlat tomonidan belgilangan va ruxsat etilgan bo'ladi;
- axloq normalari (ezgulik va yovuzlik, adolat va nohaqlik kabilar) esa davlatning yordamisiz o'z-o'zidan shakllanadi;
- huquq norm alarida davlat irodasi, axloq norm alarida esa jamoatchilik fikri ifodalanadi;
- huquq normalari, zarur hollarda, davlatning majburlov kuchi orqali, axloq normalari esa jamoatchilik fikri orqali amalga oshiriladi;
- axloq normalari ijtimoiy munosabatlarning kengroq doirasini (do'stlik, o'rtoqlik va hatto sevgini ham) tartibga soladi. Huquq esa ijtimoiy munosabatlarning torroq doirasini qamrab oladi;

- huquqda xulq-atvorni baholash mezoni «qonuniy-noqonuniy», axloqda esa «yaxshiyomon»dan iborat; huquq normalari aniq ko'rinishga ega. Hatto, ba'zan biror tinish belgisining qayerda qo'yilganligi ham inson taqdirini hal qilishi mumkin. Rus tilida mashhur bir ibora bor: «Помиловать, нельзя казнить» («Afv etilsin, qatl etish mumkin emas»). Bunda odamning hayoti saqlab qolinishi kerak. Agar vergul «нельзя» (mumkin emas) so'zidan keyin qo'yilsa, u holda o'sha odam qatl etilishi kerak bo'ladi: «Помиловать нельзя, казнить» (Bunda buyruq «afv etish mumkin emas, qatl etilsin» ma'nosiga ega bo'ladi).

Huquq va axloq ko'pincha bir yo'nalishda harakat qiladi. Ba'zan huquq jamiyatning eskirgan axloq normalaridan xalos bo'lishiga ko'maklashadi (masalan, xun olish). Shu bilan birga, huquq axloq («ezgulik» va «adolat» tushunchalari) asosida shakllanadi. Ko'pincha, sud «sha'n va qadr-qimmatni haqoratlash», «qo'pollik» va boshqa shu kabi tushunchalarni to'g'ri tushunish maqsadida axloq

qoidalariga murojaat qiladi. Huquq tizimi. Huquq — ichki yaxlitligi va o'zaro muvofiqligi bilan ajralib turadigan muayyan tizim. Lekin, boshqa tizimlar kabi, huquq ham huquq tarmoqlaridan iborat kichik tizimlarga bo'linadi. Davlatning yuridik normalari yig'indisi uning huquqini tashkil etadi. Huquqiy normalar turli-tuman bo'lib, ular o'zaro mustahkam bog'langan, muvofiqlashgan va yaxlit huquq tizimini tashkil etadi.

Xulosa

O'quvchilar orasida huquqiy va axloqiy munosabatlar jamiyatning kelajakdagi rivoji uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Bu munosabatlarning to'g'ri shakllanishi o'quvchilarning nafaqat bilimli, balki ongli, madaniyatli va mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi. Axloqiy tarbiya va huquqiy bilimlar uyg'un holda rivojlantirilgandagina sog'lom jamiyatni barpo etish mumkin.

Shu bois, har bir o'qituvchi, ota-ona va jamiyat a'zosi o'quvchilarda yuksak axloqiy fazilatlar va mustahkam huquqiy ongini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sultanov X., Qarshi'baev M. Vatan tuyg'i'si', 6-klass, No'kis, Bilim, 2014
2. O'zbekiston davlati va huquqi asoslari. 8-sinflar uchun darslik, Toshkent., 2014y
3. Xolmo'minov Q.T. Davlat va huquq nazariyasi. — T.: 1998.
4. Davlat va huquq asoslari: Izohli lug'at. — T.: 1996.
5. Odiljanova G.I. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuvlar // Qashqadaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi respublika ilmiy-amaliy anjuman. 2024. –B.934-939
6. Odiljanova G.I Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarini tashkil etish va boshqarish // O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali “Муғаллим хэм узликсиз билимлендириў” илмий-методикалык журнал Nukus 3/2-сан 2024. –B.221-2271